

YOSH GANDBOLCHILARNI TAYYORLASHDA MUHIM OMILLARNI TA'SIRINI**O'RGANISH**

Xatamov Zafarjon Nazirjonovich
Qo'qon davlat universiteti professori

Tohirjonov Xojiakbar Qahramonjon o'g'li
Qo'qon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada dunyoda gandbol sport turi bilan shug'ullanuvchilarni tayyorlashda tobora yuqori vazifalarni bajarish talablarining qo'yilishi, gandbolchlarning integral tayyorgarligini takomillashtirishda yangicha yondashuvlar zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Kalit so'zlar: Gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligi, texnik usullari, sport ta'lim, dahldorlik hissi, milliy o'zligini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy, muhit va jamiyat.

**STUDYING THE IMPACT OF KEY FACTORS IN TRAINING YOUNG
HANDBALL PLAYERS**

Xhatamov Zafarjon Nazirjonovich
Professor at Kokand State University

Tohirjonov Khojiakbar Qahramonjon ogli
Student at Kokand State University

Abstract:

This article discusses the growing demands placed on the training of handball athletes around the world, which necessitate the introduction of innovative approaches to improve the integral preparation of handball players. The study emphasizes the importance of addressing various factors that influence the effective training of young athletes.

Keywords: Physical preparation of handball players, technical skills, sports education, sense of involvement, national identity, socio-economic factors, environment, society.

Yosh gandbolchilarni tayyorlash bo'yicha dunyo amaliyotida maydondagi to'p bilan harakatlanish, raqib tomonidan yuqori bosim uyushtirilgan jarayonda texnik usullarni bajarishda aniqlik darajasini yuqori saviyaga yetkazish vazifasi vaziyatni muvaffaqiyatli hal qilishda muhim omil bo'lib bormoqda. Biroq o'yinchilar tomonidan bajariladigan texnik-

taktik harakatlarning murakkabligi, harakatlarni bajarishda integral tayyorgarlik bo'yicha yuqori tayyorgarlikka ega bo'lish zaruratini belgilaydi. Hozirgi kunda gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligi va texnik usullarni bajarish tezligi oshib borgani sayin to'p bilan bajariladigan harakatlarni amalga oshirish jarayonida yuqori samaradorlik masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki yuqori o'yin tezligi sharoitida gandbolchilar tomonidan harakatlarning bajarilishi tobora qiyinlashib bormoqda. Bu esa faqatgina bir sifatni takomillashtirish evazigagina xal etiladigan jarayon bolmay gandbolchilarni integral tayyorgarligini oshirish masalasiga yangicha uslubiy yondoshuvlarni keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi murakkab va tahlikali davrda sport ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, gandbolchi o'quvchilarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, ularning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga dahldorlik hissini oshirish, tinch va osoyishta hayotimiz uchun xavfli bo'lgan jinoyatlarga va turli tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borishga o'rgatish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Zero, Prezidentimizning yoshlarga oid siyosatida ikkita eng muhim yo'nalish bor: birinchisi-ularga zamonaviy bilim berish, ikkinchisi-yoshlar bandligini ta'minlash. Keyingi yillardagi islohotlar, tashabbus va yangi tizimlar zahirida ana shu maqsad mujassa Inson dunyoga kelgach dastlab tabiiy instinktlar bilan yashaydi. Sekin-asta o'zi yashaydigan oila muhiti, keyinroq mahalla, ta'lim olgan bilim dargohi, jamiyat ta'sirida inson dunyoqarashi shakllanadi, shaxsga aylanib boradi. Demak, kishining Inson maqomiga erishmog'i, o'zligini tanishida ma'naviy-ijtimoiy muhit va jamiyatda orttirgan tajribasi, bilimlari, tarbiyasi muhimdir. Inson tafakkuriga oila, hayotiy sharoit, jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy holatlar o'z ta'sirini ko'rsatar ekan, uning o'zligini, milliy o'zligini anglashda ta'lim-tarbiyaning ahamiyati benihoya kattadir.

Shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi-bu inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir. Binobarin, yuqorida aytilganidek, insonning shaxs bo'lib shakllanishida tarbiya muhim o'rin tutadi. ta'lim esa undan keyin turadi. Zero, tarbiyali inson ta'lim oladi va bilimli bo'lib voyaga yetadi va jamiyatga kerakli shaxsga aylanadi.

Bizning fikrimizcha, sport ta'lim muassasalari ta'lim va tarbiyasida yosh gandbolchi bolalar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatinichuqur anglab yetishi, ular ongida qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish eng muhim vazifadir. Shuningdek, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratib, gandbolchi o'quvchilarga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish zarur. Binobarin, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda

odob-axloq normalarini keng singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish katta samara beradi.

Sport ta'lim muassasalarida gandbolchi o'quvchilar o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir o'quvchida davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali ona-Vatanga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirishga erishish mumkin. Hozirgi yoshlarning ba'zilarida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi jinoyatchilikning kelib chiqishiga olib kelmoqda. Jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari esa muayyan ijtimoiy manfaatlar mahsulidir. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy aytganidek, har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashashi va oliy darajadagi yetuklikka erishmog'i uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi va ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoji tug'iladi. Shuning uchun har bir kishi hayotda bir o'zi yashamasligini, balki odamlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishini anglab yetmog'i lozim. O'zgaralar xulq-atvori muhokama qilinayotganda, o'z xulq-atvori haqida ham o'ylab ko'rish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 2022 yil 4 oktyabrdagi PF–186-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 5 martdagi 123-sonli Qarori.
5. Zashkilnyak L.O., Kovalchuk S.A. Народные игры и забавы. – K.: Osvita, 2010. – 212 s.
6. Axmedov F. Milliy o'yinlarning ta'limdagi o'rni. // Pedagogika fanlari jurnali. – T.: 2019. – №3. – B. 45–49.
7. Abdurahmonov Q. Milliy o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni shakllantirish. – T.: Fan, 2021.
8. Nazarov A.N. Fizicheskaya kultura i natsionalnye traditsii.–M.: Akademiya, 2017.–256 s.
9. Sidiqov A. Milliy meros va yoshlar tarbiyasi. – T.: Ma'naviyat, 2016.
10. Sharipov N. Milliy o'yinlarning etnopedagogik xususiyatlari. – T.: Ilm va taraqqiyot, 2020.
11. Xalmuhamedov R.D. Xalq o'yinlarining pedagogik imkoniyatlari. – T.: Fan, 2018.